

## SAMARALI NUTQIY MULOQOTNI TASHKIL QILISHDA “ADABIY NORMA”- “TIL NORMASI” TUSHUNCHASI.

**Valiyeva Dildora Kamalovna**

*O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishda til normalari va xushmuomalalik tamoyillariga rioya etish, samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishda “adabiy norma”- “til normasi” tushunchasi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Bu qoidalar o‘z navbatida chuqur munosabatlarga yo‘naltirilgan nutqiy muloqot kontsepsiyasini rivojlantirishini hisobga olgan holda, nutqiy muloqot jarayonida holatga mos tilni qo‘llash va xushmuomalalik ko‘rsatish xulq atvori muvaffaqiyatning asosiy elementi ekanligi tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *til normasi, adabiy norma, matn, muloqot, tadqiqot, xushmuomalalik, konsepsiya, kontekst, xulq-atvor, til sistemasi.*

Til normasi tushunchasi muhim va ahamiyatga loyiq bo‘lib, bu hodisaning mohiyati haqida tilshunoslik fanida juda ko‘p turli fikrlar bayon qilingan. Bundan tashqari til normasining xususiyatlari konkret tillar materiallari asosida ko‘rib chiqsak bu jarayon juda kam o‘rganilgan vaziyatlardan biri hisoblanadi

Til normasi termini tilshunoslikda ko‘pincha ikki xil manoda tushuniladi. Birinchidan, tildagi umumjamoat tomonidan qabul qilingan va mustahkamlangan qo‘llanishlar yig‘indisi norma deb yuritiladi, ikkinchidan, norma deb grammatik ma’lumotlarda, lug‘atlarda, ilmiy manbalarda tavsiya qilingan, mashhur yetakchi yozuvchi yoki shoirlar asarlaridan keltirilgan nufuzli faktlar bilan isbot qilingan va mustahkamlangan qoida tushuniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, til normasi nutqiy muloqotni samarali tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til normasi haqida gapirar ekanmiz, til sistemasining ham muhimligini unutmashimiz kerak. Til sistemasi bu tildagi barcha mavjud imkoniyatlar yig‘indisidan iborat bo‘lsa, norma tilning vositaviy imkoniyatlarining nutqdagi amalga oshgan holatlari yig‘indisidan iboratdir. Shunday ekan, konkret tilning konkret davrdagi normasini o‘sha til sistemasi imkoniyatlaridan amalda qo‘llangan – reallashgan holati belgilaydi.

Til sistemasining muhimligi shundaki, yani uning amalga oshishi, yani nutqiy muloqotda qo‘llanish jarayoni aslida normadir. Shu tufayli normaning rivoji ham aslida amalga oshgan kodifikatsiyalangan normadan qo‘llanishga, qo‘llangan normadan esa sistemadagi yangi munosabatlarga o‘tish jarayonida yuz beradi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilining umumiy normasi o‘zbek tili sistemasi imkoniyatlaridan, bu tilda gaplashuvchi barcha kishilarning o‘z nutqida qo‘llangan til vositalari yig‘indisidan iboratdir. Bu ma’noda o‘zbek tilining umumiy normasi kollektiv nutq (o‘zbek xalqi nutqi) bilan belgilanuvchi hodisadir.

Demak norma – til sistemasining obyektiv reallashuvidir. Shu sababli tilshunos olimlar norma muayyan davrda, muayyan til kollektivi nutqida obyektiv ravishda yashovchi va foydalaniladigan soʻzlar maʼnosi, soʻzning fonetik strukturasi bilan birgalikda, soʻz yasash va soʻz oʻzgartirish modellari, ularning real koʻrinishlari, sintaktik birliklar—soʻz birikmalari, gaplar va ularning real koʻrinishlaridir, deb koʻrsatadi. Oʻzbek tilining tarixiy davrlarda konkret va oʻziga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarga ega boʻlganligi ham aslida bu til sistemasi imkoniyatlaridan oʻzbek tilida gaplashuvchi kollektivning har bir tarixiy davrda ehtiyojiga yarasha foydalanganligi natijasidir.

Shunday ekan, til normasi til sistemasidan kollektiv foydalanish mahsulidir. Buni belgilash uchun oʻzbek tilining butun tarixi yoppasiga olib qaralmaydi, balki bu til rivojining muayyan davrdagi qoʻllanishlari, foydalanishlari olinadi. Oʻzbek tilidan foydalanuvchi kollektiv mana shu muayyan davrda bu tildagi maʼlum vositalarni toʻgʻri va namunaviy deb hisoblaydi va undan foydalanadi. Mana shu til vositalari oʻsha davr oʻzbek tilining umumnormasini belgilaydi. Masalan, eski oʻzbek tilida namunali, maʼqul deb hisoblangan va qoʻllanilgan koʻpgina soʻzlar (ayniqsa, poyetik leksika), baʼzi soʻz yasovchi qoʻshimchalar, ularning variantlari soʻz birikmalari, soʻzlarning oʻziga xos talaffuz va yozilish shakllari hozirgi oʻzbek adabiyoti tili uchun xarakterli emas. Demak, bu elementlar eski oʻzbek tili uchun norma boʻlgan, ammo hozirgi oʻzbek tili uchun norma hisoblanmaydi. Til normasini keng va tor maʼnoda tushunish mumkin. Tor manodagi til normasi tilning u yoki bu sohasi uchun belgilangan, aynan bir sohada qoʻllanuvchi til vositalaridir (masalan oʻzbek adabiy tili doirasidagi norma). Keng maʼnodagi norma bu oʻzbek tilida gaplashuvchi butun kollektiv nutqidagi til vositalari yigʻindisidir.

Til kollektivining muayyan davrda tildan foydalanishi nutqiy ehtiyoj va hayot talablariga koʻra boʻladi. Bu ehtiyojni belgilashda tarixiy sharoit, xalqning xoʻjaligi, maʼnaviy hayoti, falsafiy diniy qarashlari, etnografiyasi, kundalik turmushi muhim rol oʻynaydi. Shunga koʻra, til sistemasining reallashuvi, til normalarining shakllanishi rivoji har bir tilda oʻziga xos kechadi. Natijada bu jarayon umuman tilning rivojiga, uning strukturasi, takomili va sistemasidagi jarayonlarga taʼsir etadi. Pirovardida, konkret til normasi bu tilni boshqa tillardan strukturasi va real normasiga koʻra farqlashga imkon beruvchi omilga aylanadi. Masalan, hozirgi paytda oʻzbek tili oʻz normasiga koʻra, bir tomondan, qardosh turkiy tillardan, ikkinchi tomondan qardosh boʻlmagan tillardan farqlanadi. Shu tufayli ham til normasi oʻz mohiyatiga koʻra milliy xarakterga ega boʻladi.

Oʻzbek tili umumnormasidagi vositalar koʻpgina tarixiy davrlarning maxsulidir. Til normasidagi tarixiylik, bir tomondan til anʼanalarining kuchliligida ham koʻrinadi. Aslida til normasi bu til sistemasining jamiyatning til praktikasi jarayonida tarixan tanlangan va mustahkamlangan elementlari yigʻindisidan iboratdir. Til normasi nutqiy amaliyot jarayonida yuzaga keluvchi hodisa boʻlgani va til kollektivida avloddan avlodga oʻtib turuvchi amaliy malaka boʻlgani uchun unda tendentsiya va traditsiya kuchli boladi. Chunki tilning ijtimoiy hodisa, uning kollektiv aloqa quroli ekanligi til normasining muayyan davrda va muayyan jamiyatda kishilarning tildan kollektiv boʻlib foydalanish qoidalri yigʻindisidan iborat

bo'lishini taqazo etadi. Tildan foydalanishdagi ushbu kollektiv qoida va malakalar tez o'zgaruvchan emas, balki nisbatan turg'undur. Shu sababli ko'pgina olimlar til normasiga xos muhim belgilardan biri turg'unlik, barqarorlikdir deb ko'rsatadilar: "Demak, adabiy til normasi-bu til taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlarini ifodalovchi adabiyotning eng yaxshi namunalari mustahkamlangan yoki jamiyatning o'qimishli qismi tomonidan afzal ko'rilgan nisbatan barqaror bo'lgan ifodalash usulidir. Mana shunday gapirish usuli to'g'ri va umum uchun majburiy deb hisoblanadi".<sup>168</sup> Bunday fikr boshqa ishlarda ham aytilgan. Chunonchi: "Norma til strukturasi jamiyat kundalik til praktikasida tanlangan va mustahkamlangan amalda qo'llanayotgan eng turg'un hamda traditsion elementlari yig'indisidan iboratdir ".<sup>169</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nosirova D.N. " Zamonaviy jamiyatda muloqot madaniyati va uning xususiyatlari". 2022. cyberleninka.ru.
2. Ne'matov X. "Til va nutq" , Toshkent 1993.
3. Maqsudova M.A. " Muloqot psixologiyasi". Toshkent 2006. nauchniyimpuls.ru
4. Sh. Hamroyev "Zamon va yoshlar nutqi". Toshkent 2020. americanjournal.org
5. A.Musayev "Nutqiy muloqotni shakllantirish omillari va uning asosiy xususiyatlari". 1998. jdpu.uz.
6. Brown P, Levinson S "Politeness" Cambridge, 1987

<sup>168</sup> Babayeva D.R. 2001y. mbaza.uz "Nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirish ."

<sup>169</sup> Searle J. R. . "Language and society", London, 1976